


2020- yilda O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozori

2020- yil yakuni bo‘yicha hisobot ma‘lumotlariga ko‘ra, 45 ta sug‘urta kompaniyasi tomonidan 5941108 ta shartnomalar tuzilgan yoki 2019- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 80,3 foizni tashkil etdi.


Respublika bo‘yicha sug‘urta summasi jami 900866,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2019- yilga nisbatan 30,5 foizga yoki 210404 mlrd. so‘mga ko‘paydi. Ixtiyoriy sug‘urtaning ulushi 67,7 foiz (609550,9 mlrd. so‘m) bo‘lsa, 32,3 foizi (291315,8 mlrd. so‘m) majburiy sug‘urtaga to‘g‘ri keladi.

2020- yilda sug‘urta mukofotlari tushumi 2344,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shundan ixtiyoriy sug‘urta 1984,5 mlrd. so‘m (84,7 foiz umumiy summadan), majburiy sug‘urta 359,5 mlrd. so‘m (15,3 foiz). 2020- yilda jami sug‘urta to‘lovlari hajmi 725,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich 2019- yilning shu davrida 808,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan.




2020- yil uchun respublika bo‘yicha sug‘urta tashkilotlari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar nomi	Tuzilgan shartnomalar soni (birlikda)	Sug‘urta summasi, mln. so‘m	Sug‘urta mukofotlari tushumi, mln. so‘m	Sug‘urta to‘lovlari, mln. so‘m
Jami	5941108	900866665,1	2344014,4	725805,0
<i>shu jumladan:</i>				
Ixtiyoriy sug‘urta	2503174	609550846,6	1984536,4	590743,9
Hayotni sug‘urta qilish tarmog‘i jami	18468	391588,2	293059,3	307486,4
Umumiy sug‘urta tarmog‘i	2484706	609159258,5	1691477,2	283257,5
<i>shu jumladan:</i>				
Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish	1225055	18738067,2	29088,4	5929,6
Kasallikdan ehtiyot shart sug‘urta qilish	44681	14915177,6	43494,9	41929,6
Yer usti transporti vositalarini sug‘urta qilish	168966	23190929,6	267066,6	40319,3
Harakatlanadigan temir yo‘l tarkibini sug‘urta qilish	1971	2330204,0	11564,5	1349,6
Aviatsiya sug‘urtasi	35	29588533,8	56216,4	8035,0
Dengiz sug‘urtasi	6	15952,1	333,4	-
Yo‘ldagi mol-mulkni sug‘urta qilish	42437	31427385,5	27262,6	1222,9
Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug‘urta qilish	230017	160485472,0	524719,9	30514,0
Mol-mulkni zarardan sug‘urta qilish	281831	136994889,3	194881,4	31870,0
Avtofuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish	12002	1809417,3	5155,6	8,2
Aviatsiya sug‘urtasi doirasidagi javobgarlikni sug‘urta qilish	3	11419,1	14,6	0,5
Dengiz sug‘urtasi doirasida javobgarlikni sug‘urta qilish	-	-	-	0,5
Umumiy fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish	42417	48535007,1	40103,9	24894,2
Kreditlarni sug‘urta qilish	402486	125464337,4	338629,9	45426,9
Kafillikni (kafolatlarni) sug‘urta qilish	1816	1258416,8	4418,6	534,3
Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug‘urta qilish	30983	14394049,8	148526,4	51222,9
Tibbiy sug‘urta	9451	2605437,4	33301,0	23419,9
<i>shu jumladan:</i>				
Yuridik shaxslar	1512	965707,2	28625,3	20679,8
Jismoniy shaxslar	7939	1639730,2	4675,8	2740,1



Sug‘urta fuqaro yoki yuridik shaxs (sug‘urta qildiruvchi) sug‘urta tashkiloti (sug‘urtalovchi) bilan tuzadigan mulkiy yoki shaxsiy sug‘urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

Qonunda ko‘rsatilgan shaxslarga sug‘urta qiluvchilar sifatida boshqa shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkini yoxud o‘zining boshqa shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini o‘z hisobidan yoxud manfaatdor shaxslar hisobidan sug‘urta qilish (majburiy sug‘urta) majburiyati qonun bilan yuklangan hollarda sug‘urta ushbu bobning qoidalariga muvofiq shartnomalar tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi.




2020- yil uchun respublika bo‘yicha sug‘urta tashkilotlari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

mln.so‘m

Ko‘rsatkichlar nomi	Tuzilgan shartnomalar soni (birlikda)	Sug‘urta summasi	Sug‘urta mukofotlari tushumi	Sug‘urta to‘lovlari
Majburiy sug‘urta	3437934	291315818,5	359478,0	135061,1
<i>shu jumladan:</i>				
Harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy sug‘urtasi	12	4638757,8	8461,1	4833,0
Soliq idoralari xodimlarining majburiy davlat sug‘urtasi	-	-	-	-
Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish	45129	28484515,6	5549,2	139,5
Obyektlarni davlat mablag‘lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini majburiy sug‘urta qilish	3994	21809970,9	26355,0	2445,5
Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish	3340668	132457717,8	175462,2	66898,4
Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish	38981	75373229,4	114747,7	56587,8
Majburiy sug‘urtaning boshqa turlari	9150	28551627,1	28902,8	4157,0
<i>shu jumladan:</i>				
Norezidentlar	5614	28853954,3	29475,3	4104,0

<i>davomi</i>				<i>mln.so‘m</i>
Rezidentlar	2479092	580305304,2	1662001,9	279153,6
shu jumladan:				
Davlat boshqaruvi organlari va budjet tashkilotlari	2787	5081860,3	18497,2	1209,4
Tijorat (xo‘jalik hisobidagi) nomoliyaviy tashkilotlar	420532	327811741,6	598135,1	155035,2
Nodavlat notijorat tashkilotlar	49601	20393640,8	117615,4	5803,0
Moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar	282143	150693651,6	662949,3	74061,4
Jismoniy shaxslar	1724029	76324409,9	264804,8	43044,5
Fuqarolarning mablag‘lari hisobidan ixtiyoriy sug‘urta qilish	1827820	111486647,0	914099,4	275243,8
Fuqarolarning mablag‘lari hisobidan majburiy sug‘urta qilish	2814314	125467687,3	151778,1	53533,9
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xo‘jalik yurituvchi subyektlari sug‘urtasi	143718	106969738,5	152183,0	19511,0

2019-2020- yillar uchun respublika bo‘yicha sug‘urta tashkilotlari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari



2020- yilda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha sug‘urta tashkilotlarining qayta sug‘urtalash operatsiyalari

mln.so‘m

Ko‘rsatkichlar nomi	Jami	Shu jumladan:		
		O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta tashkilotlari-norezidentlari bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha		O‘zbekiston Respublikasida joylashgan sug‘urta tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha
		MDH mamlakatlari	boshqa mamlakatlar	
Qayta sug‘urtalashga qabul qilingan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta mukofotlari (badallari)	199361,7	12812,0	123235,3	63314,4
Qayta sug‘urtalashga berilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta mukofotlari (badallari)	325759,2	22167,1	223255,4	80336,7
ulardan: retrotsessiyani hisobga olmagan holda	99854,5	-	-	-
Qayta sug‘urtalashga qabul qilingan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari	19799,1	3698,3	6647,2	9453,7
Qayta sug‘urtalashga berilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlariidagi qayta sug‘urtalovchilar ulushi	12912,5	208,9	6708,8	5994,9

Mulkiy sug‘urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug‘urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug‘urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug‘urta hodisasi) sodir bo‘lganda boshqa tarafga (sug‘urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo‘lsa, o‘sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug‘urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug‘urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog‘liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug‘urta puli) doirasida to‘lash (sug‘urta to‘voni to‘lash) majburiyatini oladi.

2020- yil uchun O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta tashkilotlari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari, 1-sug‘urta shakli “Sug‘urta tashkiloti faoliyati to‘g‘risida hisobot”ni taqdim etuvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxs hisoblangan sug‘urta tashkilotlari ma’lumotlari asosida tayyorlandi.



**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi boshqarmasi
O‘zbekiston Respublikasi Davlat
statistika qo‘mitasi
Tel: (71) 202-80-75**